



SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

SURXONDARYO VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI


*Dastlabki ma'lumot
2023-yil yanvar-dekabr*



*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Тел. 76-225-65-74*

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024-yil 1-yanvar holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 5 769 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 83 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 5 686 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-dekabr oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 20 787,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 108,0 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 579,4 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 88,1 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 20 208,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 108,7 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 3 390,3 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 117,8 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2022-yil yanvar-dekabr oyiga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	20787,5	108,0
Termiz sh.	3730,4	106,5
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	845,6	110,7
Angor	978,8	110,4
Bandixon	281,7	116,6
Boysun	856,3	107,9
Muzrabot	889,2	105,8
Denov	4842,9	107,9
Jarqo'rg'on	1110,5	110,0
Qumqo'rg'on	897,9	106,3
Qiziriq	882,8	106,8
Sariosiyo	800,6	105,5
Termiz	393,4	106,1
Uzun	900,5	109,7
Sherobod	1268,2	108,5
Sho'rchi	2108,7	109,6


2023-yilning yanvar-dekabr oyida 2022-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan viloyatning Bandixon (116,6 %), Oltinsoy (110,7 %) va Angor (110,4 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-dekabr)




So'ngi 5 yillikda (2019-2023-yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022-yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021-yilning mos davriga nisbatan 112,0 % ni tashkil qildi.

2023-yil uchun chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda)



2023-yilning yanvar-dekabr oyida o'sish sur'ati **108,0** % ni tashkil qildi.




Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Denov tumani 23,3 % bilan 4 842,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Bandixon tumani 1,4 % bilan 281,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.


2022-yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

Hajmi, mlrd. so'm




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 20 208,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 8,7 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 97,2 % ni tashkil etdi.




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 11,9 % ga kamaydi va 579,4 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 2,8 % ulushiga to'g'ri keldi.



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



 Yirik korxonalar


 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qiziriq (99,5 %), Boysun (99,5 %) va Angor (99,3 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 2,8 % ni tashkil etib, eng katta ulush Denov (5,2 %), Termiz sh (4,5 %), Sherobod (2,7 %) va Jarqo'rg'on (2,6 %) tumanlarida kuzatildi.


2,8 %



97,2 %




 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik




Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*



2023-yilning yanvar-dekabr oyi holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 7 314,9 ming. so'mni (2022-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 105,5 %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Termiz shahri (18 783,4 ming. so'm), Denov (11 672,5 ming. so'm) va Sho'rchi (9 338,8 ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2023-yil yanvar-dekabr), foizda



 **Dehqon bozorlari**

 **Chorva bozorlari**



UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

9


Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd. so'm	2022-yil yanvar- dekabr oyiga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	3390,3	117,8
Termiz sh.	192,8	155,9
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	301,8	115,8
Angor	134,8	103,0
Bandixon	179,0	128,5
Boysun	220,7	114,2
Muzrabot	345,7	107,6
Denov	381,3	130,6
Jarqo'rg'on	201,6	114,5
Qumqo'rg'on	203,1	81,8
Qiziriq	232,7	113,4
Sariosiyo	253,3	112,9
Termiz	82,2	110,9
Uzun	238,8	126,0
Sherobod	122,1	170,2
Sho'rchi	300,4	132,1


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2023-yil yanvar-dekabr)














Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2023-yil yanvar-dekabr)



Viloyat bo'yicha 2023-yilning yanvar-dekabr oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 3 390,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 117,8 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 1 585,2 mlrd. so'mni (137,1 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 1 805,1 mlrd so'mni tashkil etdi (104,9 %).













2023-yilning yanvar-dekabr oyida tumanlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 1 585,2 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (836,4 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<p>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</p> <p>836,4 mlrd. so'm</p>  <p>52,8 %</p>	<p>Non va non mahsulotlari</p> <p>194,3 mlrd. so'm</p>  <p>12,3 %</p>	<p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va)</p> <p>146,4 mlrd. so'm</p>  <p>9,2 %</p>
<p>Tovuq go'shti</p> <p>48,3 mlrd. so'm</p>  <p>3,0 %</p>	<p>Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p>70,7 mlrd. so'm</p>  <p>4,5 %</p>	<p>Tuxum</p> <p>56,7 mlrd. so'm</p>  <p>3,6 %</p>
<p>Ziravorlar</p> <p>26,2 mlrd. so'm</p>  <p>1,7 %</p>	<p>Sut va sut mahsulotlari</p> <p>57,8 mlrd. so'm</p>  <p>3,6 %</p>	<p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</p> <p>16,7 mlrd. so'm</p>  <p>1,0 %</p>
<p>Tuzlamalar</p> <p>34,9 mlrd. so'm</p>  <p>2,2 %</p>	<p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</p> <p>27,9 mlrd. so'm</p>  <p>1,8 %</p>	<p>Nooziq-ovqat tovarlar</p> <p>68,9 mlrd. so'm</p> <p>4,3 %</p>

2023-yilning yanvar-dekabr oyida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra, savdo aylanmasi hajmi 1 805,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 1 323,5 mlrd. so'm, qo'y va echkilar – 461,6 mlrd. so'mni, otlar – 14,2 mlrd. so'mni, parrandalar – 5,8 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>869,5 mlrd. so'm</p>  <p>48,2 %</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>249,0 mlrd. so'm</p>  <p>13,8 %</p>	<p>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</p> <p>205,0 mlrd. so'm</p>  <p>11,4 %</p>
<p>Qo'ylar</p> <p>385,3 mlrd. so'm</p>  <p>21,3 %</p>	<p>Otlar</p> <p>14,2 mlrd. so'm</p>  <p>0,8 %</p>	<p>Echkilar</p> <p>76,3 mlrd. so'm</p>  <p>4,2 %</p>
<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>2,2 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p>	<p>Tovuqlar</p> <p>2,6 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p>	<p>Quyionlar</p> <p>1,0 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p>
<p>Qushlar</p> <p>0 mlrd. so'm</p>  <p>%</p>		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024-yil 1-yanvar holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1 388 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 2 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 386 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2022-yil yanvar- dekabr oyiga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	519,8	111,0
Termiz sh.	200,5	120,9
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	11,7	109,0
Angor	14,8	110,1
Bandixon	3,3	111,4
Boysun	10,2	108,1
Muzrabot	13,8	109,1
Denov	83,7	108,2
Jarqo'rg'on	30,9	113,6
Qumqo'rg'on	14,3	108,7
Qiziriq	10,2	111,3
Sariosiyo	21,6	113,8
Termiz	39,9	105,7
Uzun	12,9	53,2
Sherobod	31,4	115,0
Sho'rchi	11,7	109,0

2023-yilning yanvar-dekabr oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 519,8 mlrd. so'mga yetdi. 2022-yilning mos davriga nisbatan 11,0 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 98,1 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Surxondaryo viloyati	2 272,1	100,0
Termiz sh.	1 008,8	44,4
tumanlar:		
Oltinsoy	4,2	0,2
Angor	25,0	1,1
Bandixon	0,4	
Boysun	2,8	0,1
Muzrabot	1,4	0,1
Denov	1 094,5	48,2
Jarqo'rg'on	66,2	2,9
Qumqo'rg'on	3,3	0,1
Qiziriq	3,5	0,2
Sariosiyo	9,6	0,4
Termiz	19,2	0,8
Uzun	1,3	0,1
Sherobod	4,9	0,2
Sho'rchi	27,0	1,2


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Denov tumani (1 094,5 mlrd. so'm) va Termiz shahri (1 008,8 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)




2023-yilning yanvar-dekabr oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 2 272,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,7 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 938,8 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 96,6 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – 1 133,3 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 111,3 %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda




Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o'z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o'zgartirmagan holda jo'natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to'lanadigan yoki to'lanmaganligidan qat'iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'mda



Viloyat bo'yicha 2023-yilning yanvar-dekabr oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 6 724,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 5,6 % ga o'sdi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Yirik korxonalar

Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 5 929,2 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 118,2 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 88,2 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

2024-yil 1-yanvar holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 2 198 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 38 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 160 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Oltinsoy (6,6 m) va Qiziriq (3,8 m) tumanlarida kuzatildi.

	Jami mlrd. so'm	2022-yil yanvar- dekabr oyiga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	6724,3	105,6
Termiz sh.	1601,7	114,9
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	290,1	230,5
Angor	94,8	117,3
Bandixon	78,9	114,4
Boysun	50,1	113,2
Muzrabot	369,4	107,1
Denov	2277,7	122,5
Jarqo'rg'on	285,8	100,7
Qumqo'rg'on	280,3	66,4
Qiziriq	35,7	119,2
Sariosiyo	212,6	59,6
Termiz	478,2	107,5
Uzun	136,5	126,1
Sherobod	125,2	71,7
Sho'rchi	407,3	64,7